



RELATIONS OF SAUDI ARABIA WITH THE STATES OF THE CENTRAL ASIAN REGION

Asilbek Komolbekovich Shukurov

Independent Researcher

Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, economic diplomacy, cultural diplomacy, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Russia, China, USA.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: In the implementation of its long-term plans to diversify foreign economic relations and strengthen its position in the Muslim world, Saudi Arabia places special emphasis on the role of Central Asia. This article analyzes the formation, dynamics, and prospects of a new foreign policy vector directed toward Central Asia. It examines cooperation based on the cultural and historical commonalities of the two regions, high-level official visits, economic partnership initiatives, and coordination within international organizations. The main challenges and promising directions for future cooperation are also discussed.

SAUDIYA ARABISTONINING MARKAZIY OSIYO MINTAQASI DAVLATLARI BILAN ALOQALARI

Asilbek Komolbekovich Shukurov

Mustaqil tadqiqotchi

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, iqtisodiy diplomatiya, madaniy diplomatiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Xitoy, AQSH.

Annotatsiya: Saudiya Arabistonining tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish va musulmon dunyosidagi mavqeiini mustahkamlash bilan bog'liq uzoq muddatli rejalarini amalga oshirishda Markaziy Osiyoning roliga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jihatdan ushbu maqolada, Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida Markaziy Osiyoga nisbatan shakllangan yangi vektorning shakllanishi, dinamikasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Unda ikki mintaqa o'rtasidagi madaniy va tarixiy umumiyliklarga asoslangan hamkorlik aloqalari, shuningdek, yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, iqtisodiy hamkorlik tashabbuslari va xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamohanglik tahlil qilinadi. Asosiy muammolar, shuningdek, keyingi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

ОТНОШЕНИЯ САУДОВСКОЙ АРАВИИ СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОГО РЕГИОНА

Асилбек Комолбекович Шукуров

Независимый исследователь

Доктор философии по политическим наукам (PhD)

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, экономическая дипломатия, культурная дипломатия, Казахстан, Узбекистан, Туркменистан, Кыргызстан, Таджикистан, Россия, Китай, США.

Аннотация: В рамках реализации долгосрочных планов по диверсификации внешнеэкономических связей и укреплению позиций в мусульманском мире, Саудовская Аравия придаёт особое значение роли Центральной Азии. В этой связи в статье анализируется формирование, динамика и перспективы нового вектора внешней политики Саудовской Аравии в отношении Центральной Азии. Рассматриваются сотрудничество, основанное на культурной и исторической общности двух регионов, официальные визиты высокого уровня, инициативы по экономическому партнёрству и координация в рамках международных организаций. Также освещаются основные проблемы и перспективные направления дальнейшего сотрудничества.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari xalqaro munosabatlarning subyekti bo'lgan har bir davlatga turli ko'rinishda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida har bir rivojlanayotgan davlat oldida ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashni, yangi strategik sherikchilik va

hamkorlik shakllaridan oqilona foydalanishni kun zaruratiga aylantirmoqda.[1] Qayd etish joizki, hozirgi davrda Ko'rfaz arab davlatlarining jahon hamjamiyatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunga asosiy sabablar, davlatlarning energiya resurs zahiralarga boy ekanligi, strategik geografik joylashuv hamda tez suratda o'sib borayotgan iqtisodiy salohiyati, texnologik imkoniyatlari, xalqaro savdo va sanoatdagi o'ring oritb borayotganligi deyish mumkin. Shuningdek, xalqaro munosabatlardagi siyosiy ishtiroki va diplomatik vositachilik pozitsiyalarining mustahkamlanishi kabi omillarni aytish mumkin. Jahonning kuchli arab oltiligi deya e'tirof etiluvchi davlatlar o'zining nafaqat neft va gaz zaxirasi bo'yicha ustuvorligi jihatidan, balki yer yuzining ko'pgina rivojlanayotgan davlatlariga donorlik vazifasini o'tayotgani bilan ham ahamiyatli hisoblanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi bilan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va asosiy normalariga muvofiq iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni rivojlantirishga va o'zaro hamkorlik munosabatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash va tashqi siyosatni olib borishni ilmiy tadqiq etish ayni paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi.[2]

Saudiya Arabistoni Markaziy Osiyo davlatlarini rasmiy ravishda tan olgan ilk musulmon mamlakatlardan biri sifatida ajralib turadi. Bu tan olish, o'z navbatida, qirollikning postsovet geosiyosiy makonida o'z o'rnini topishga bo'lgan dastlabki strategik harakati sifatida baholanishi mumkin. 1991-yilning kuzida, hali Sovet Ittifoqi rasmiy ravishda tarqalamay turib, Markaziy Osiyodagi yangi vujudga kelgan respublikalar – Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston – tomonidan e'lon qilingan mustaqillik bayonotlari Saudiya Arabistoni tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.[3]

Asosiy qism. Markaziy Osiyo strategik jihatdan muhim mintaqalardan biri bo'lib, jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan bu yer boy tabiiy resurslar, muhim savdo yo'llari va noyob madaniy merosga ega.[4] Oxirgi o'n yilliklarda Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro maydonda muhim ishtirokchilarga aylanib, jahon kuchlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, AQSH, Yaqin Sharqdagi islom davlatlarining e'tiborini tortmoqda.[5] Globallashuv va mintaqada ta'sir o'tkazish uchun kuchayib borayotgan raqobat sharoitida Markaziy Osiyo tashqi siyosati tobora ko'p qutbli va ko'p vektorli bo'lib bormoqda. Saudiya Arabistoni Yaqin Sharqdagi yetakchi davlatlardan biri sifatida dunyoning turli davlatlari bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarini o'rnatishga an'anaviy tarzda katta e'tibor qaratadi.[6] So'nggi yillarda mamlakat Markaziy Osiyoda o'z ishtirokini sezilarli darajada oshirdi, bu mintaqaning strategik joylashuvi, boy energiya resurslari, Markaziy Osiyoning jahon siyosati va iqtisodiyotidagi o'rni ortib borayotgani kabi qator omillar bilan bog'liq. Saudiya shahzodasi Muhammad bin Salmon tashabbusi bilan qabul qilingan "Vision 2030" dasturi Saudiya Arabistonining tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, bu Markaziy

Osiyo bilan energetika, xavfsizlik, infratuzilma va madaniyat kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.[7] Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari so'nggi o'n yilliklarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Saudiya Arabistoni mintaqa davlatlari mustaqillikka erishganidan beri iqtisodiy va gumanitar yordam ko'rsatish va strategik ittifoqlar tuzish orqali ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda faol ishtirok etib kelmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari Saudiya Arabistoniga nafaqat islomiy ishlar sohasidagi muhim hamkor, balki xavfsizlik sohasida salohiyatli investor va siyosiy ittifoqchi sifatida ham qarashadi.

Ma'lumki, bugungi jahon miqyosida avj olayotgan keskin o'zgarishlar oqibatida turli ko'rinishdagi manfaatlar to'qnashuvi, milliy etnik nizolar va tartibsizliklar ko'lamini ortirmoqda. Bunday siyosiy jarayonlar asosan xalqaro geosiyosiy ahamiyatga ega, tabiiy resurslarga boy, ko'pmillatli mintaqalarda namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari ham shu jihatlariga mos kelishini inobatga olib, mintaqada bugungi va kelgusi barqarorlikni ta'minlash va do'stona aloqalarni mustahkamlashda bir qator yangi diplomatiya turlarini bugungi amaliyotda qo'llash dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, mintaqaning qoq markazida joylashgan O'zbekiston geosiyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki mintaqada dunyodagi eng yirik neft va gaz provinsiyasi – Fors ko'rfazi yaqinida, shuningdek, Yevroosiyo quruqlik va suv transporti yo'laklari chorrahasida joylashgan.[8]

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining geografik jihatdan dengizga chiqish imkoniyati cheklanganini e'tiborga olgan holda, Fors ko'rfazi arab davlatlari bilan hamkorlik qilish ustuvor vazifasini hal etish Markaziy Osiyoda tranzit, xalqaro transport va kommunikasiya tarmoqlarini barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Arab mamlakatlari Markaziy Osiyo mintaqasini, shu jumladan, O'zbekistonni O'rtayer, Qizil va Arab dengizlari, Suvaysh kanali va Fors ko'rfazi bilan birlashtirgan holda jahon bozorlariga chiqish yo'lida tranzit mamlakatlar rolini o'ynashi mumkin. Xususan, mintaqaning eng boy va imkoniyatlarga ega davlati sanalgan Qatar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va uni yanada barqarorlashtirish ayniqsa muhim.

1990-yillarda Saudiya Arabistoni va boshqa ko'plab arab mamlakatlarining Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvlari aniqligi va institutsional mujassamligi jihatidan yetarlicha shakllanmagan edi. Mazkur mintaqada, garchi diniy va tarixiy jihatdan ayrim umumiyliklarga ega bo'lsa-da, arab dunyosidagi siyosat ishlab chiquvchilar uchun uzoq, noaniq va geostrategik jihatdan periferik hudud sifatida baholangan.[9]

Shu tarzda, Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyoga nisbatan dastlabki yondashuvi mintaqani islomiy birdamlik, strategik sheriklik va iqtisodiy hamkorlikning yangi hududi sifatida talqin etishga asoslangan edi.

1990-yillarning o'rtalariga kelib Saudiya Arabistoni Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni institutsional darajada mustahkamlash yo'lida muhim tashabbuslarni amalga oshirdi. Bu jarayon doirasida Saudiya qirolligi elchixonalar ochish orqali mintaqadagi mavjudligiga huquqiy va siyosiy asos yaratdi. Jumladan, 1996-yilda Qozog'istonning sobiq poytaxti Olmaota shahrida Saudiya elchixonasi ochildi, oradan bir yil o'tib, 1997-yilda esa Toshkentda Saudiya Arabistonining O'zbekistondagi elchixonasi ish boshladi. Bu tashabbuslar qirollikning mintaqaviy strategiyasida Qozog'iston va O'zbekiston kabi yetakchi davlatlarga alohida e'tibor qaratayotganining yaqqol dalilidir.[10]

Saudiya Arabistoni bu mintaqaning geosiyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ahamiyatini tushunib, Markaziy Osiyo bilan aloqalarni faolroq rivojlantirishga kirishdi. Avvalo, bu Saudiya Arabistoni uchun ham, Fors ko'rfazining boshqa mamlakatlari uchun ham tashqi siyosatning muhim elementiga aylangan boy energiya resurslarining mavjudligi bilan bog'liq edi. Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligini tan olishi, shuningdek, ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatishi munosabatlarni rivojlantirishning muhim daqiqalaridan biri bo'ldi. Masalan, Saudiya Arabistoni Qozog'iston va O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi va bu turli sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Turkmaniston va Tojikiston kabi mintqa davlatlari ham Saudiya Arabistonining, ayniqsa, gumanitar yordam va madaniy almashinuv sohalarida muhim hamkorlariga aylanganini alohida ta'kidlash lozim.[11]

2000-yillarning oxiridan boshlab Saudiya Arabistoni o'zining tashqi iqtisodiy strategiyasi doirasida mintaqadagi sa'y-harakatlarini kuchaytirdi. Markaziy Osiyo o'zining iqtisodiy ambitsiyalari, ayniqsa, energetika, qishloq xo'jaligi va transport kabi sohalarida muhim manzilga aylandi. Masalan, O'zbekiston va Qozog'iston muhim energetika va qishloq xo'jaligi resurslariga ega bo'lib, Saudiya Arabistoni sarmoyalari va mahsulotlari uchun yangi bozorlarni izlashda Ar-Riyodning asosiy hamkorlariga aylandi. Trans-Qozog'iston yo'nalishi kabi transport yo'laklarini rivojlantirish, shuningdek, infratuzilmani qurish loyihalari Ar-Riyodning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. 2016-yilda Saudiya Arabistonida boshlangan "Vision 2030" dasturi Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni chuqurlashtirishga yangi turtki berdi. Ushbu dasturning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish va Saudiya Arabistonining strategik ahamiyatga ega hududlardagi ishtirokini kengaytirishdan iborat. O'zining boy tabiiy resurslari va qo'shma iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlariga ega Markaziy Osiyo ushbu kontekstga to'liq mos keladi va Saudiya Arabistoni energetika, xavfsizlik va savdo sohalarida o'z ta'sirini kengaytirish ustida faol ishlamoqda.[12]

Energetika sohasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega. Global energiya almashinuvi sharoitida Riyod va Markaziy Osiyo davlatlari yangi texnologiyalarni o'zlashtirish uchun kuchlarni birlashtirmoqda. 2023 yilda ACWA Power kompaniyasi O'zbekiston energetika vazirligi bilan Qoraqalpog'istonda 1 500 megavatt quvvatga ega shamol elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzoladi. Qozog'iston va Saudiya Arabistoni vodorod energetikasini rivojlantirish va uglevodorodlarni qayta ishlash bo'yicha qo'shma qadamlarni belgilab berdi, bu esa global energiya o'zgarishi sharoitida hamkorlik qilish uchun yangi istiqbollarni ochib beradi.[14] Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik ham muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda. Transmilliy terrorizmning davom etayotgan tahdidlari fonida Markaziy Osiyo va Saudiya Arabistoni tajriba almashish va qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqishni kuchaytirdi. 2022-yilda Toshkentda ekstremizmga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlangan forum bo'lib o'tdi, unda axborot xavfsizligi va jamiyatning ijtimoiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha qo'shma strategiyalar taqdim etildi.[13]

Siyosiy darajada ko'p tomonlama formatlarda muloqotni kuchaytirish kutilmoqda. Saudiya Arabistoni Markaziy Osiyo-Ko'rfaz hamkorlik kengashi (GCC) kabi mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarida tobora ko'proq ishtirok etmoqda. Bunday platformalar xavfsizlik va rivojlanish sohalarida manfaatlarni muvofiqlashtirish va qo'shma tashabbuslarni rivojlantirish uchun muhim vositaga aylanishi mumkin. Terrorizm va kiber tahdidlarning davom etayotgan muammolarini hisobga olgan holda, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik yanada chuqurlashadi. Yaqin yillarda saudiyalik mutaxassislar ishtirokida Markaziy Osiyo xavfsizlik kuchlari uchun qo'shma ta'lim dasturlari va treninglar o'tkazish rejalashtirilgan.[15] Madaniy almashinuv, ayniqsa, ta'lim sohasida ham kuchayadi. Saudiya Arabistoni Markaziy Osiyodan kelgan talabalar uchun grantlar sonini ko'paytirish, shuningdek, qo'shma konferensiyalar, forumlar va festivallar o'tkazish orqali arab tili va islom madaniy merosini ommalashtirish bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash niyatida.

Shu bilan birga, muayyan muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Boshqa tashqi ishtirokchilarning siyosiy raqobati, mintaqadagi alohida davlatlardagi iqtisodiy beqarorlik va uzoq muddatli strategiyalarni muvofiqlashtirish zarurati munosabatlarning rivojlanish sur'atini sekinlashtirishi mumkin. Biroq, kuchli iqtisodiy baza va o'zaro manfaatdorlikning mavjudligi qulay istiqbollar haqida gapirish imkonini beradi.

Xulosa. Shunday qilib, Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy faoliyati uning xalqaro maydondagi ishtirokini kengaytirish va global maydonda asosiy ishtirokchi sifatidagi maqomini mustahkamlash istagining kengroq tendentsiyasini aks ettiradi. Ar-Riyod va mintaqqa mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiyot va energetikadan tortib, xavfsizlik, ta'lim va madaniyatgacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarni qamrab olgan barqaror ijobiy dinamikani

namoyish etmoqda. Tabiiy resurslarga boy va strategik jihatdan joylashgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik Saudiya Arabistoni uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan “Vision 2030” dasturini amalga oshirishda muhim elementga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyo, o‘z navbatida, sarmoya oqimi, yangi texnologiyalar, bozorlarni kengaytirish va arab dunyosi bilan aloqalarni mustahkamlashdan manfaatdor, bu esa ikki tomonlama munosabatlarni chinakam o‘zaro manfaatli qiladi. O‘zaro munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari, albatta, istiqbolli ko‘rinadi. Qo‘shma energetika va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, gumanitar va ta’lim sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish, ko‘p tomonlama formatlarda siyosiy muloqotni rivojlantirish Saudiya Arabistonining mintaqadagi rolini sezilarli darajada kuchaytirishi va Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zlarida barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Shu bilan birga, ushbu maqsadlarga erishish uchun tomonlar bir qator qiyinchiliklarni engib o‘tishlari kerak bo‘ladi. Boshqa asosiy ishtirokchilarning geosiyosiy raqobati, global iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish zarurati va mintaqadagi alohida mamlakatlarning ichki muammolari. Biroq o‘zaro manfaatdorlik, rivojlanishga intilish va ishonchni mustahkamlash hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bugun Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo hamkorlikning yangi davri – pragmatizm, strategik hisob-kitob va madaniy yaqinlik o‘nlab yillar davomida barqaror va ko‘p qirrali aloqalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan davr ostonasida turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.10.2008 yildagi 233-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1404731>
2. “Markaziy Osiyo-Fors ko‘rfazi” koridorini yaratish bo‘yicha bitim kuchga kirdi <https://oz.sputniknews-uz.com/politics/>
3. Toshkentda «Markaziy Osiyo - Fors ko‘rfazi» yo‘lagi ishtirokchilari tariflarni muhokama qilindi. <https://kun.uz/uz>
4. Markaziy Osiyo, Fors ko‘rfazi hamda Qizil dengiz portlari transport yo‘lagi bitimi kuchga kirdi. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2016/04/30/markaziy-osiyo-fors-korfazi-hamda-ummon-dengizi-portlari-transport-yo-lagi-bitimi-kuchga-kirdi-480963>
5. Nuriddinov E. O‘zbekiston: eng yangi tarix. – T.: Asr, 2010.
6. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, <http://strategy.gov.uz/ru>
7. Katzman, Kenneth. Gulf States Split on Iran. <https://gulfif.org/gulf-states-split-on-iran>
8. Мунавваров, Заҳидулло И. XX асрда халқаро сиёсий ва иқтисодий муносабатларда Арабистон ярим ороли мамлакатлари. Тошкент, 1997, 213-бет.

9. Why Saudi Arabia will Struggle Draw Investors in 2019.
<https://worldview.stratfor.com/article/why-saudi-arabia-will-struggle-draw-investors-2019>
10. <https://mfa.uz/uz/pages/o-konsulskix-okrugax-diplomat>
11. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbek-president-pays-official-visit-to-qatar>
12. Правительственный портал Республики Узбекистан.
<https://old.gov.uz/ru/events/view/491>
13. “Xalq so‘zi gazetasi. 2008-yil 5-may. № 13-soni.
14. “Markaziy Osiyo-Fors ko‘rfazi” koridorini yaratish bo‘yicha bitim kuchga kirdi
<https://oz.sputniknews-uz.com/politics>
15. Toshkentda «Markaziy Osiyo - Fors ko‘rfazi» yo‘lagi ishtirokchilari tariflarni muhokama qilindi. <https://kun.uz/uz>
16. “The GCC in 2020. Outlook for the Gulf and the Global Economy,” The Economist. Economist Intelligence Unit, 2019, p. 3.